

Yo'lingda jar bor.

Mashhur sayyoh Xristofor Kolumb XV asrda Amerikadan Yevropaga keltirgan giyoh — "petum" o'simligining bargi insoniyat salomatligining mudhish kushandasi ekanligini bilgan ekan. Dastlab shifobaxsh dori, deb tan olingan tamakining zararli jihatlari asta-sekin aniqlana boshladi. Hozirgi izlanishlar natijasida tamaki tutuni tarkibida 30ga yaqin zararli moddalar mavjud ekan. Bu moddalar nurlanishga sabab bo'lib, organizm to'qima va hujayralarining yemirilishiga olib keladi. Shuningdek, tutun tarkibida nikotin, oltingugurt, ammiak, azot, is gazi, turli xildagi efir moylari, sianit kislota, chumoli kislota, sirka, Valeriana kislota va boshqa zaharli



moddalar borligi ishonarli tarzda, aniq faktlar bilan isbotlangan. Shu bilan birga — mashhur olim Karl Linlu Yevropada uni birinchi bo'lib o'stirgan Jak Niko sharafiga "nikotin" deb nom berdi. Nikotin — nerv sistemasini, yurak, o'pka, jigar, ovqat hazm qilish organlari va jinsiy bezlar faoliyatiga ham katta salbiy zarar yetkazar ekan. Nikotin moddasini qabul qilgan odamning ko'rish, sezish va eshitish organlari faoliyati sustlashadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, uzluksiz chekadigan bolalarning 80%i, katta bo'lganda ham chekadilar. Daniyada yetti yoshli o'quvchilarning 40%i, Belgiyada 11 yoshli bolalarning 10%i, 15 yoshlilarning 50%i, Fransiyada 10-17 yoshlilarning 30%i, GFRda 10-12 yoshli bolalarning 36%i chekish kasalligiga uchragan. Italiyada esa bu ko'rsatkich 65%ga teng.

1998-yilning oktabr oyidan Respublikamizda — tajriba sinov tariqasida "Chekmasdan yoshlik gashtini sur" tarbiyaviy dasturi tuzildi. Xalq ta'limi vazirligi bu tadbirni qo'llab-quvatlab, umumiy o'rta talim maktablarida o'quvchilarning zararii odatlaiga chalinib qolishning, ayniqsa ular o'rtasida tamaki chekishning oldini olish maqsadida "British — American tabacco Uzbekistan" korxonasi bilan hamkorlik shartnomasini tuzdi. Dasturning maqsadi esa — o'quvchilarning ijtimoiy salohiyatini yuksalishida mustaqil fikr va qaror qabul qilishlariga, chekishga qarshi mas'uliyatli bir qarorga kelishlariga yordam berishdan iborat.

Shuningdek, 1-dekabr — "Xalqaro OITSga qarshi kurashish" kuni, 3-dekabr — "Nogironlarni himoya qilish" va 4-dekabr — O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar jamg'armasini tuzish to'g'risida qilingan qarorlarga asosan, shahrimizning deyarli barcha maktablarida turli xil mavzudagi tadbirlar — "Ichmay, chekmay yoshlik gashtini sur", "Alkogolizm, chekish va giyohvandlik — kamolot dushmani", "Barkamol avlod — yurt tayanchi" va "Barkamol avlod egalari" ochiq darslar va ma'naviy soatlar ham bo'lib o'tmoqda. Men ushbu tadbirlarda mehmon sifatida qatnashib ajoyib sahna ko'rinishlari orqali yosh avlodning bu zaharli moddalarga qarshiligini bildim. Tadbir davomida maktab o'quvchilarining "Odam savdosi" to'g'risidagi sahna ko'rinishlari, giyohvandlikning zararli oqibatlari haqida tengdoshlarim fikrlarini tingladim. Tadbirdan so'ng 9-sinflar o'rtasida shahar poliklinikasi, sog'liqni saqlash xodimlari bilan giyohvandlik va OITS haqida ma'ruza bo'lib o'tdi, o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

Prezidentimiz

I.A.Karimovning

"Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch" kitobida bolaning tarbiyasi uchun oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir, deyilgan. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va



tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar — yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalar poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Taassufki, ba'zi ota-onalar o'z farzandining qiziqishi va intilishlariga, uning ongi tafakkurida har kuni bir o'zgarish ro'y berayotganiga, ko'zida yangi-yangi savollar paydo bo'layotganiga e'tibor bermaydi. Boz ustiga, agar ota oilada o'zini tutishni bilmasa, axloq-odob bobida farzandlariga o'rnak bo'lish o'rniga qo'pol muomala qiladigan bo'lsa, bu holat tabiiyki, bola ma'naviy olamining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Vaqti soati kelib, uning xarakterida inson degan nomga nолоyiq xunuk bir odat namoyon bo'ladi.

Inson aql-zakovatining hadsiz taraqqiyoti, fan-texnika sohasida ulkan kashfiyotlarga olib keladi. Hozirgi kunda oddiy ishchi ham murakkab mashinalarni boshqarmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari murakkab matematik hisoblarni bajarib kelmoqda. Tafakkur olami yuksalib bormoqda. Ana shunday bir vaziyatda har bir kishi — o'quvchi, talaba, ishchi, xizmatchi, olim ham umuman hammamiz sog' va salomat yashamog'imiz, jismoniy va aqliy jihatdan yetuk bo'lmog'imiz lozim.